



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2023- YIL
YANVAR-DEKABR**



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida jami **9 807,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,5 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor




2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 482

Bino va inshootlar qurish

480

Fuqarolik obyektlarini qurish

726

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 89,5 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 55,1 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 82,1 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,9 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 136,4 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 27,0 foiz ulushni va 85,7 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.01.2023- y.	01.01.2024- y.	
Buxoro viloyati	3 004	2 688	89,5
Buxoro shahri	975	844	86,6
Kogon shahri	137	111	81,0
<i>tumanlar:</i>			
Olot	83	74	89,2
Buxoro	225	188	83,6
Vobkent	128	116	90,6
G'ijduvon	209	152	72,7
Kogon	151	146	96,7
Qorako'l	118	114	96,6
Qorovulbozor	60	55	91,7
Peshko'	179	174	97,2
Romitan	263	260	98,9
Jondor	233	221	94,8
Shofirkon	243	233	95,9



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Buxoro sh. (31,4)



Romitan t. (9,7)



Shofirkon t. (8,7)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. soʻm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	9 807,6	1 519,9	5 509,6	2 778,1
shahar:				
Buxoro sh.	2 262,0	418,7	1318,6	524,7
Kogon sh.	700,3	141,6	495,2	63,5
tuman:				
Olot	500,3	128,3	164,7	207,3
Buxoro	574,1	27,4	331,4	215,3
Vobkent	497,6	-	297,8	199,8
Gʻijduvon	680,7	0,4	325,4	354,9
Kogon	822,4	73,3	571,3	177,8
Qorakoʻl	369,8	10,4	172,2	187,2
Qorovulbozor	484,3	333,4	105,9	45,0
Peshkoʻ	639,5	-	419,7	219,8
Romitan	1 027,8	363,1	432,5	232,2
Jondor	548,2	-	357,6	190,6
Shofirkon	700,6	23,3	517,3	160,0




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 519,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi koʻrsatkich darajasidan 4,2 % punktga kamayib, 15,5 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-dekabr uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 68,8 % i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,3%), Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,3% i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,9 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,2 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning ko'rsatkichiga nisbatan 3,7 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 115,8% ni tashkil etgan holda 5 509,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



56,2

2023-yil
yanvar-dekabr

52,5

2022- yil
yanvar-dekabr



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (517,2 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 73,8 %), Kogon shahrida (495,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 70,7 %) va Kogon tumanida (571,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 69,5 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **28,3 %** ni tashkil etdi yoki **2 778,1 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,8 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **476,9 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **9 330,7 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,9 %** va **95,1 %** ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-dekabr



Davlat mulki

Nodavlat mulki

2023- yil
yanvar-dekabr



Davlat mulki

Nodavlat mulki

**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-dekabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **69,7 %** i yoki **6 832,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

13,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **952,3** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **13,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **3 454,2** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **50,6 %** ni tashkil etdi.

50,6 %

35,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **2 425,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,5 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	9 807,6	107,5	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	2 262,0	104,1	23,1
Kogon sh.	700,3	100,1	7,1
<i>tuman:</i>			
Olot	500,3	109,6	5,1
Buxoro	574,1	102,3	5,9
Vobkent	497,6	100,2	5,1
G‘ijduvon	680,7	114,2	6,9
Kogon	822,4	115,8	8,4
Qorako‘l	369,8	117,0	3,8
Qorovulbozor	484,3	111,4	4,9
Peshko‘	639,5	106,1	6,5
Romitan	1 027,8	112,6	10,5
Jondor	548,2	112,1	5,6
Shofirkon	700,6	103,6	7,1



Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,4 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,9 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga ko'payib, 47,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga ko'payib, 44,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,7 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,3 % (3,0 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2022- yil
yanvar-dekabr



2023- yil
yanvar-dekabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga kamaydi va 38,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 61,8 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	9 807,6	6 243,3	2 519,8	1 044,5
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	2 262,0	1 247,0	843,8	171,2
Kogon sh.	700,3	316,8	264,7	118,8
<i>tuman:</i>				
Olot	500,3	314,4	46,9	139,0
Buxoro	574,1	405,2	130,0	38,9
Vobkent	497,6	394,3	79,4	23,9
G'ijduvon	680,7	534,1	113,5	33,1
Kogon	822,4	489,3	258,2	74,9
Qorako'l	369,8	277,1	71,7	21,0
Qorovulbozor	484,3	234,7	30,5	219,1
Peshko'	639,5	429,8	159,8	49,9
Romitan	1 027,8	800,9	177,3	49,6
Jondor	548,2	366,6	139,5	42,1
Shofirkon	700,6	433,1	204,5	63,0



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	4 838,7	105,7
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	7 749,1	102,2
Kogon sh.	10 909,0	98,2
<i>tuman:</i>		
Olot	4 829,3	108,0
Buxoro	3 251,0	100,6
Vobkent	3 378,3	98,4
G'ijduvon	2 128,4	112,3
Kogon	9 837,2	113,4
Qorako'l	2 165,2	115,4
Qorovulbozor	24 583,3	109,2
Peshko'	4 919,2	104,3
Romitan	6 847,6	110,8
Jondor	2 980,8	110,2
Shofirkon	3 778,6	102,3



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga
qurilish ishlari
2023- yil yanvar-dekabr uchun**



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 24 583,3 ming so'm (yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,2 %), undan keyin mos ravishda Kogon shahri – 10 909,0 ming so'm (yoki 98,2 %), Kogon tumani – 9 837,2 ming so'm (yoki 113,4 %), Buxoro shahri – 7 749,1 ming so'm (yoki 102,2 %) Romitan tumani – 6 847,6 ming so'm (yoki 110,8 %) va egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (65) 223-81-99